ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№4(2)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 210 sahifa,*
*13-aprel, 2026-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E’zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg‘izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O‘zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish ...... 10
Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna

O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari ...... 13
Boltayeva Go'zal Komilovna

Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi ...... 21
D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev

Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish ...... 25
Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi ...... 30
Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi

O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari ...... 35
Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Mahammadjon qizi

Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar ...... 39
Axmedov Jaloliddin Oribovich

The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students ...... 42
Baxramova Malika Muzaffarovna

Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari ...... 47
Choriyeva Zarina Anvarbek qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ... 50
D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva

Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish ...... 53
Djurayeva Nargiza Kudratillayevna

Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi ...... 59
Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna

Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni ...... 62
Ergasheva Mehriyona

Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash ...... 65
G'ayratova Mohidil Zafar qizi

Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi ...... 69
Maksetova Nurjamal Kuatovna

Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish ...... 72
Malikova Xurshida Ikramovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar ...... 75
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi

Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari ...... 78
Muxammatova Ozoda Muzrabovna

Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni ...... 82
N. G. Pulatova

Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari ...... 85
Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna

Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari ...... 89
Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna

Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida ........ 93
Norova Sevara Uyg'un qizi

Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari ........ 97
Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich

Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari ........ 104
Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi

AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi ........ 110
Orishev Jamshid Bahodirovich

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari ........ 116
Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna

Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati ........ 119
Sariboyev Nurali Abdunazarovich

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni ........ 122
Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li

Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ........ 126
Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna

Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students ........ 133
Sapayev Ruzmat Radjapovich

O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari ........ 136
Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi

PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti ........ 141
To'qliyeva Matluba Boqiyevna

Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri ........ 146
Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati ........ 151
Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi

Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari ........ 155
Turdiyev Azam Xasanovich

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari ........ 158
Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li

Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ........ 163
Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna

Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari ........ 165
Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li

Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar ........ 173
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari ........ 176
Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi

Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi ........ 179
Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi

Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi ........ 182
Yorlaqova Malika Ahmad qizi

The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language ........ 186
Yusupova Gulnoza Mirzoyevna

Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari ........ 189
Zairova Nigora

Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari ........ 193
**Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna**

Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни ........ 197
**Журабаев Абдукарим Маматкулович**

Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема ........ 200
**Зокиржонова Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.**

Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе ........ 203
**Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович**

Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar ........ 205
**Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich**

Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка ........ 207
**Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна**

# KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIALOGIK NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV O'YINLARNING AHAMIYATI

Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Meyliqulova Manzura Abdullayevna
Pedagogika fanlari bo'yicha p.f.f.d (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Maqolada o'yin faoliyati bolalarning nutqiy faolligini oshirish, erkin fikr bildirish, savol-javob qilish hamda tengdoshlar bilan samarali muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantirishdagi muhim vositalar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, kommunikativ o'yinlarning turlari, ularni tashkil etish usullari hamda pedagogik shart-sharoitlari haqida yoritilgan. Maqolada dialogik nutqni rivojlantirish jarayonida bolalarning ijtimoiylashuvi, nutq madaniyati va muloqot kompetensiyasining shakllanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ o'yinlardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** dialogik nutq, kommunikativ o'yinlar, muloqot ko'nikmasi, maktabgacha yosh, nutqiy rivojlanish, ijtimoiylashuv, o'yin faoliyati.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and practical significance of communicative games in the development of dialogic speech in older preschool children. The article shows that game activity is an important tool for increasing children's speech activity, forming the skills of free expression, questioning, and effective communication with peers. It also covers the types of communicative games, methods of their organization, and pedagogical conditions. The article pays special attention to the socialization of children, the formation of speech culture, and communication competence in the process of developing dialogic speech. Based on the results of the research, practical recommendations have been developed for the effective use of communicative games in preschool educational organizations.

**Key words:** sdialogic speech, communicative games, communication skills, preschool age, speech development, socialization, game activity.

**Аннотация:** В данной статье анализируется теоретическое и практическое значение коммуникативных игр в развитии диалогической речи у детей старшего дошкольного возраста. Показано, что игровая деятельность является важным инструментом повышения речевой активности детей, формирования навыков свободного выражения, задавания вопросов и эффективного общения со сверстниками. Рассматриваются также виды коммуникативных игр, методы их организации и педагогические условия. Особое внимание уделяется социализации детей, формированию речевой культуры и коммуникативной компетентности в процессе развития диалогической речи. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по эффективному использованию коммуникативных игр в дошкольных образовательных организациях.

**Ключевые слова:** диалогическая речь, коммуникативные игры, коммуникативные навыки, дошкольный возраст, развитие речи, социализация, игровая деятельность.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan sharoitda bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo'lib shakllanish uchun bola nafaqat bilimli, balki muloqotga kirisha oladigan, o'z fikrini aniq va ravon ifoda eta oladigan bo'lishi zarur. Shu bois, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommu-

nikativ oʻyinlardan foydalanish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb boʻlib, chuqur oʻrganishni talab etadi. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, unda katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida kommunikativ oʻyinlarning oʻrni, imkoniyatlari va amaliy ahamiyati yoritib beriladi hamda ushbu yoʻnalishda pedagogik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim boʻgʻini boʻlib, unda bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ayniqsa, nutq va muloqot koʻnikmalarining shakllanishi ustuvor vazifa hisoblanadi.

Katta maktabgacha yosh davri (5–7 yosh) bolalarning nutqiy rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri boʻlib, aynan shu davrda ularning fikrni aniq va ravon ifodalash, savol-javob asosida muloqot olib borishi, suhbatni davom ettirishi kabi dialogik nutq koʻnikmalari rivojlanadi. Dialogik nutq esa bolaning ijtimoiylashuvi, atrofdagilar bilan samarali muloqot oʻrnatishi hamda keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar doirasida bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda shaxsning muvaffaqiyati koʻp jihatdan uning muloqotga kirishish, oʻz fikrini erkin ifodalashi, boshqalarni tinglay olish qobiliyatiga bogʻliq. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, bolalarda nutq faoliyati, ayniqsa, dialogik nutq, bevosita faoliyat jarayonida, ya'ni oʻyin orqali samarali rivojlanadi.

Oʻyin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat turi boʻlib, nafaqat bolaning aqliy, jismoniy rivojlanishiga, balki uning ijtimoiy tajriba orttirishiga ham xizmat qiladi. Oʻyin jarayonida bolalar turli rollarni bajaradi, oʻzaro muloqotga kirishadi, fikr almashadi, savollar beradi va javob qaytaradi. Aynan shu jarayonda ularning dialogik nutqi tabiiy ravishda shakllanib boradi.

Kommunikativ oʻyinlar esa oʻyin faoliyatining maxsus turi boʻlib, ular bevosita muloqotni rivojlantirishga yoʻnaltirilganligi bilan ajralib turadi. Bunday oʻyinlar bolalarni suhbatga jalb qilish, nutqiy faolligini oshirish, ijtimoiy rollarni anglash, tinglash orqali javob berish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Kommunikativ oʻyinlar orqali bolalar oʻz fikrlarini erkin ifodalashga, suhbatdoshini tushunishga, muloqot jarayonida muayyan qoidalarga amal qilishga oʻrganadilar. Bu esa ularning nafaqat nutqiy, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir koʻrsatadi. Shuningdek, pedagogik amaliyot shuni koʻrsatadiki, an'anaviy oʻqitish usullariga nisbatan oʻyin asosidagi yondashuv bolalarda katta qiziqish uygʻotadi va ularning faol ishtirokini ta'minlaydi. Ayniqsa, kommunikativ oʻyinlar bolalarni majburlamasdan, tabiiy muhitda muloqotga jalb etadi. Bu esa dialogik nutqni rivojlantirishda samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ oʻyinlardan maqsadli va tizimli foydalanish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolada katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ oʻyinlarning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi hamda ularni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Bolalarning nutqiy faolligini oshirish, muloqot koʻnikmalarini rivojlantirish va ijtimoiylashuv jarayonini qoʻllab-quvvatlashda kommunikativ oʻyinlarning oʻrni keng yoritiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

L.S.Vgotskiyning "Psixologiya va pedagogika asoslari" asarida bolaning nutqiy rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayoni bilan uzviy bogʻliqligi asoslab berilgan. Muallifning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bolalar nutqini rivojlantirishda kattalar va tengdoshlar bilan oʻzaro muloqotning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi.

A.N.Leontevning "Faoliyat nazariyasi"da esa shaxs rivojlanishi faoliyat jarayonida yuz berishi ta'kidlanadi. Bu yondashuvga koʻra, oʻyin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat turi boʻlib, aynan shu jarayonda nutq va kommunikativ koʻnikmalar shakllanadi.

D.B. Elkoninning "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" asarida rolli oʻyinlarning bola psixikasi va nutqiga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Muallif oʻyin jarayonida bolalar oʻzaro muloqotga kirishib, dialogik nutq elementlarini tabiiy ravishda egallashini ilmiy asoslab beradi.

S.L.Rubinshteynning "Umumiy psixologiya" asarida nutq inson faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida koʻrib chiqilib, uning tafakkur bilan uzviy bogʻliqligi yoritilgan. Bu esa bolalarda nutqni rivojlantirish tafakkur rivoji bilan chambarchas ekanligini koʻrsatadi.

F.R.Qodirovaning "Maktabgacha pedagogika" maktabgacha ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirish metodlari, xususan, oʻyin texnologiyalarining oʻrni keng yoritilgan. Unda bolalarda muloqot madaniyatini shakllantirish pedagogik vazifa sifatida koʻrsatib oʻtiladi.

Sh.A.Abdullayevaning "Maktabgacha ta'limda oʻyin faoliyatining pedagogik ahamiyati" asarida oʻyinlarning ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari ochib berilib, ularning nutq rivojiga ijobiy ta'siri amaliy misollar orqali asoslangan.

M.Xoliqovaning “Kommunikativ koʻnikmalarni shakllantirishda oʻyin metodlari” ishida bolalarda muloqot koʻnikmalarini rivojlantirishda kommunikativ oʻyinlarning samarali usullari va shakllari tavsiya etilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya toʻgʻrisida”gi Qonunida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk qilib rivojlantirish, nutq va muloqot koʻnikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ushbu adabiyotlar majmuasi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ oʻyinlarning nazariy asoslari va amaliy jihatdan har tomonlama yoritib beradi mavzuning ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish, ularning muloqot koʻnikmalarini shakllantirish hamda oʻyin faoliyatining psixologik-pedagogik xususiyatlarini oʻrganishga oid ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqotda shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv, faoliyatga asoslangan hamda kommunikativ yondashuv asosiy metodologik tamoyillar sifatida qabul qilindi.

Avvalo, faoliyat nazariyasi asoschilari tomonidan ilgari surilgan gʻoyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rus psixologi A.N. Leontevning faoliyatning shaxs rivojlanishidagi hal qiluvchi oʻrni haqidagi qarashlariga tayanilib, oʻyin faoliyati bolalar rivojlanishining yetakchi omili sifatida talqin etildi. Uning fikricha, bola faoliyat jarayonida ijtimoiy tajribani egallaydi va bu jarayonda nutqiy rivojlanish ham yuzaga keladi.

Shuningdek, mashhur psixolog L.S. Vgotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi tadqiqotning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Unga koʻra, bolaning nutqi va tafakkuri ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi. Vgotskiy “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini ilgari surib, kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlikdagi faoliyat, jumladan, oʻyin jarayoni bolaning nutqiy imkoniyatlarini kengaytirishini ta’kidlaydi. Bu esa kommunikativ oʻyinlarning dialogik nutqni rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Bundan tashqari, D.B.Elkoninning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida oʻyin faoliyatining yetakchi oʻrin tutishi haqidagi qarashlari ham tadqiqotda asos sifatida olindi. Elkoninga koʻra, rolli oʻyinlar jarayonida bolalar kattalar dunyosini oʻzlashtiradi, ijtimoiy rollarni bajaradi va bu orqali muloqotga kirishish koʻnikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, dialogik nutq aynan oʻyin jarayonida tabiiy shakllanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy faoliyatini oʻyin egallaydi. Shu tariqa bolada oʻyin orqali barcha jihatlari yuzaga chiqadi.Taʻlim-tarbiya jarayoni ham oʻyin orqali amalga oshiriladi.Nutq rivojlanishi masalalarini oʻrganishda S.L.Rubinshteynning nutq va tafakkur birligi haqidagi gʻoyalari ham muhim ahamiyatga ega. Unga koʻra, nutq faqat aloqa vositasi boʻlibgina qolmay, balki fikrlashning asosiy shakli hamdir. Shu sababli bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish ularning tafakkurini rivojlantirish bilan uzviy bogʻliqdir.

Maktabgacha ta’lim metodikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar ham metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Xususan, oʻzbek olimlaridan F.R.Qodirova, Sh.A. Abdullayeva, M. Xoliqovalarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish va oʻyin texnologiyalaridan foydalanish borasidagi ilmiy ishlari ushbu tadqiqotning nazariy bazasini boyitadi. Ularning tadqiqotlarida oʻyin faoliyati bolalarning nutqiy faolligini oshiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, taqqoslash, tahlil va umumlashtirish. Ushbu metodlar yordamida kommunikativ oʻyinlarning bolalar dialogik nutqini rivojlantirishdagi samaradorligi oʻrganildi va tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotning metodologik asosini Oʻzbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya toʻgʻrisida”gi Qonuni hamda maktabgacha ta’limga oid davlat talablari tashkil etib, ularda bolalarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish jarayonida kommunikativ oʻyinlarning roli juda muhim ekanligi amaliyot natijalarida yaqqol namoyon boʻldi. Kuzatish va pedagogik tajribalar shuni koʻrsatdiki, oʻyin faoliyati bolalarni faol muloqotga jalb qiladi, ularning nutqiy faolligini oshiradi, savol-javob, suhbatni davom ettirish, fikr almashish kabi koʻnikmalarini shakllantiradi. Oʻyinlar orqali bolalar oʻzaro hamkorlik qiladi, muammolarni birgalikda hal etadi va bu jarayonda nafaqat nutqi, balki ijtimoiy koʻnikmalari ham rivojlanadi. Shu bilan birga, rolli va dramatik oʻyinlar bolalarda turli vaziyatlarda muloqot qilish, turli nuqtai nazarni tushunish va uygʻunlashish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, kommunikativ oʻyinlarni muntazam va tizimli tashkil etish bolalarda dialogik nutqni yanada tez va samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, pedagog tomonidan oʻyin jarayonini toʻgʻri boshqarish, bolalarni faol ishtirok etishga ragʻbatlantirish va oʻzaro muloqot qoidalarini tushuntirish natijaviylikni oshiradi. Shu nuqtai nazardan, oʻyinlar nafaqat bolalarning nutqiy rivojlanishida, balki ularning ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishida ham muhim vosita ekanligi isbotlandi.

Bundan tashqari, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kommunikativ o'yinlar orqali bolalar o'z fikrini erkin ifodalashga o'rganadi, boshqalarni tinglashni va ularning fikrini hisobga olishni egallaydi. Bu esa kelajakda ularning muloqot madaniyati va ijtimoiy ko'nikmalarining mustahkam poydevorini yaratadi.

Umuman olganda, kommunikativ o'yinlar katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning samarali va tabiiy usuli hisoblanadi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda o'yin texnologiyalaridan maqsadli foydalanish, o'yinlarni muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish zarurligini tasdiqlaydi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlar samarali pedagogik vosita ekanligi kuzatiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'yin jarayonida bolalar erkin muloqotga kirishadi, savol-javob qilish, fikr bildirish va suhbatni davom ettirish ko'nikmalarini faol shakllantiradi. Ayniqsa, rolli va syujetli o'yinlar bolalarning nutqiy faolligini oshirib, ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi.

Kommunikativ o'yinlardan tizimli foydalanish natijasida bolalarda dialogik nutq rivojlanadi, lug'at boyligi kengayadi va muloqot madaniyati shakllanadi. Shuningdek, bolalar o'z fikrini aniq va ravon ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va u bilan mulaqot qilishga,hamda ijtimoiy muhitda faol ishtirok etishga o'rganadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning roli juda katta. O'yin faoliyati bolalarni erkin muloqotga jalb qiladi, nutqiy faollikni oshiradi, savol-javob, suhbatni davom ettirish va fikr almashish ko'nikmalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, o'yinlar bolalarning ijtimoiylashuvi, hamkorlik qilish, muammolarni birgalikda hal etish, boshqalarning fikrini tinglash va hisobga olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Kommunikativ o'yinlarni tizimli va maqsadli tashkil etish bolalarda dialogik nutqni tez va samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagog tomonidan o'yin jarayonini boshqarish, bolalarni faol ishtirok etishga rag'batlantirish va muloqot qoidalarini tushuntirish natijani oshiradi. O'yinlar bolalarning nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy va shaxs sifatida rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur maqoladan kelib chiqqan holda xulosa shuki, kommunikativ o'yinlar katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning eng tabiiy, samarali va qiziqarli usuli hisoblanadi. Ular pedagoglarda bolalarning nutqiy faolligini oshirish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tavsiyalar beruvchi samarali vositadir.

**Takliflar:**

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kommunikativ o'yinlarni tizimli ravishda joriy etish zarur;
2. Pedagoglar o'yinlarni bolalarning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishiga yo'naltirilgan tarzda rejalashtirish zarur;
3. Rolli va dramatik o'yinlarni ko'proq qo'llash orqali dialogik nutqni rivojlantirishni kuchaytirish mumkin;
4. Bolalarni o'z fikrini erkin ifodalashga va boshqalarni tinglashga rag'batlantirish muhim;
5. O'yin jarayonida muloqot qoidalarini o'rgatish va ularga rioya qilishni nazorat qilish tavsiya etiladi;
6. Kommunikativ o'yinlar bo'yicha pedagogik tajribalarni umumlashtirish va samarali usullarni keng tatbiq etish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Лев Семёнович Выготский. Психология и педагогика. – М.: Педагогика, 1984.
2. Алексей Николаевич Леонтьев. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Наука, 1978.
3. Даниил Борисович Эльконин. Психология дошкольника. – М.: Просвещение, 1989.
4. Сергей Леонидович Рубинштейн. Основы общей психологии. – М.: Наука, 1989.
5. Qodirova, F.R. Maktabgacha pedagogika .– Toshkent: 2019
6. Abdullayeva, Sh.A. Maktabgacha ta'limda o'yin faoliyatining pedagogik ahamiyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
7. Xoliqova, M. Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda o'yin metodlari. – Toshkent: Ilm-fan, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, Toshkent, 2020.
9. Karimova, D. Kommunikativ o'yinlar orqali bolalarda nutqni rivojlantirish. – Toshkent: Ilmiy maqolalar to'plami, 2019.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №4(1)**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.